



UDK: 1 (092). 043.6

*Dilshoda AMINOVA,*  
Samarqand davlat universiteti magistranti  
E-mail: dilshoda00@mail.ru

*O‘zFinPI dotsenti X. Tojiyeva taqrizi asosida*

### O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA “OTA” KONSEPTI (“RAVSHAN” DOSTONI MISOLIDA)

Аннотация

Kognitiv tilshunoslikda konsept tafakkurdagi jami bilimlar ko‘rinishida assotsiyatsiyalanadi. Konsept muayyan madaniyatga tegishli bo‘lgan faoliyat, dunyoqarash va tasavvurlar jamlanmasidir. Har qanday badiiy asar milliy konseptosferaga ega mental munosabatlar natijasidir va konseptlarni tahlil qilish bu ma‘lum bir xalq milliy o‘ziga xosligini ochish demakdir. Maqolada zamonaviy tilshunoslikdagi konsept tushunchasiga alohida e‘tibor qaratilgan va “ota” konseptiga doir lingvistik ma‘lumotlar, umumiy xulosalar keltirilgan hamda “Ravshan” xalq dostoni misolida “Ota” konseptining stilistik-pragmatik xususiyatlari ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Konsept, lingvokulturologiya, pragmatika, psixolingvistika, lisoniyshaxs, lingvopoetika, tushuncha, stilistika.

### КОНЦЕПТ «ОТЕЦ» В УЗБЕКСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ (НА ПРИМЕРЕ ЭПОСА «РАВШАН»)

Аннотация

В когнитивной лингвистике понимание связано с мышлением в форме общих знаний. Концепт - это совокупность действий, мировоззрений и идей, принадлежащих определенной культуре. Любое произведение искусства является результатом мысленных связей с национальным концептуальным полем, а анализ концептов означает определение национальной идентичности определенного народа. В статье уделено особое внимание понятию современного языкознания, приводятся лингвистические данные о понятии «отец», а также общие выводы из научных мнений. Стилистические и прагматические особенности концепта «отец» раскрываются на примере народного эпоса «Равшан».

**Ключевые слова:** Концепт, лингвокультурология, прагматика, психоллингвистика, языковая личность, лингвопоэтика, понимание, стилистика.

### THE CONCEPT OF “FATHER” IN UZBEK LINGUISTICS (BASED ON THE EXAMPLE OF THE EPIC “RAVSHAN”)

Annotation

In cognitive linguistics, understanding is associated with thinking in the form of general knowledge. A concept is a set of activities, worldviews and imaginations belonging to a certain culture. Any work of art is the result of mental relations with the national conceptosphere, and the analysis of concepts means revealing the national identity of a certain people. The article pays particular attention to the concept of modern linguistics, linguistic data on the concept of “father”, and general conclusions from scientific opinions are presented. The stylistic and pragmatic features of the concept of “father” are revealed in the example of the folk epic “Ravshan”.

**Key words:** Concept, linguoculturology, pragmatics, psycholinguistics, linguistic personality, linguopoetics, understanding, stylistics.

**Kirish.** Zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari sanalgan lingvokulturologiya, pragmalingvistika, psixolingvistika, kognitivlingvistika, sotsiolingvistika, neyrolingvistika kabilar lisoniy birlikni umumiy va individual tarzda tahlil etib, tilni turli aspektlarda o‘rganmoqda. Jahon tilshunosligi inson omili nuqtayi nazardan lingvistik izlanishlarni olib borar ekan, zamon va makon qonuniyatlarini ham e‘tibordan chetda qoldirmaydi. Zero bugungi takomillashib borayotgan davr, insonning “sun‘iy intellekt” tizimiga oid vositalar bilan muloqoti tilshunoslik ilmiga yangicha qarashni, ilmiy tadqiqotning yangicha ko‘rinishlarini ishlab chiqishni talab etmoqda. Lingvistika sohasidagi mana shunday yangi tadqiqotlardan sanalgan lingvokulturologik va pragmatic tahlillar antroposentrik qarashlarning amaliy ifodasi sanaladi. Bugungi kun ilmiy tadqiqotlari bir soha doirasidagina emas, bir necha soha uyg‘unligida hamkorlikni zarurat deb bilmoqda. Xususan, konsept terminining turli zamonaviy yo‘nalishlarda talqin etilishi natijasida bu kabi lingvistik birliklarning mazmun doirasi ham kengaydi. Dunyo ilm-fani doirasida o‘rganilyotgan konseptlar xalq tafakkuri, bilimi, ijtimoiy o‘rni, psixikasini ochib berishda muhim sanaladi. Har

qanday konsept milliy- madaniy, kognitiv-psixik mahsuldir. Konsept kognitivlingvistika va lingvomadaniyatshunoslikning asosiy birligi sifatida tushuncha va ma‘no terminlari bilan ma‘nodoshlik hosil qilsa-da, o‘ziga xos farqli jihatlariga egaligi bilan ajralib turadi. Kognitivtilshunoslikda konsept tafakkurdagi jami bilimlar ko‘rinishida assotsiyatsiyalanadi. Konsept muayyan madaniyatga tegishli bo‘lgan faoliyat, dunyoqarash va tasavvurlar jamlanmasidir.

**Adabiyotlar tahlili.** Jahon tilshunosligida “konsept”, “konseptosfera” terminining zamonaviy sohalar doirasida faol qo‘llanilib kelinyotgani qator ilmiy ish va tadqiqot materiallaridan ma‘lumdir. Askoldov S.A., Karasik V.I., Maloxova S.A., Stepanov Y.S., Demyankov V.Z., Yashenko T.A., Axmedova D.X kabilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar va yaratilgan monografiyalardan ma‘lumki, konsept mazmun doirasi keng va har bir millat o‘ziga xos konseptosferaga egadir.

O‘zbek tilshunosligida ham keying yillarda “konsept” termini ommalashdi va tadbiiq etildi. Ushbu konsept termini bilan aloqador lingvokulturologik va lingvokognitiv ilmiy ishlardan oydinlashadiki, hali bu sohalar doirasida jiddiy

tadqiqotlar soni yetarlicha emas. Ammo o'zbek tilshunosligida konsept mohiyatini ochishga qaratilgan matn va uslub masalalariga doir ilmiy materiallar va manbalar talaygina. B.Yo'ldoshev, N. Turniyozov, Sh. Safarov, A.Mamatov, S.Karimov, X.Doniyorov, N.Mahmudov, M.Yo'ldoshev, M.Hakimov, I.Mirzayev kabi tilshunos olimlar tadqiqotlari va ilmiy ishlari fikrimiz isboti sanaladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Konsept (lot.conceptual: ma'no, mazmun, tushuncha) – inson ongining ruhiy zahiralari va mental birliklarni hamda uning tajribasi, bilimni aks ettiradigan ma'lumotlarni izohlash uchun xizmat qiluvchi atama; xotira, mental so'zlar va miya bilan bog'liq faol birlik, inson ruhiyatida aks etgan olam manzarasining konseptual tizimi, ya'ni shaxsning dunyo obyektlariga oid tasavvurlari, o'ylari, taxminlari, bilimlari haqidagi ma'lumotlardir [1].

**Tahlil va natijalar.** O'zbek tilining izohli lug'atida "ota" so'zining o'nga yaqin ma'nolari keltirilgan bo'lib, avvalo, "farzandli, bola-chaqali er kishi (o'z bolalariga nisbatan) ma'nosi ifodalangan. Bundan tashqari ota so'zi kasb (ota kasbim- temirchilik), yurt(u endi ota yurtiga qaytadi), erga murojaat (Otasi, o'g'lingizga qarang), yoshiulug' kishigamurojaat (ota, otaxon, sizga majlis ma'qulmi?), o'g'il bolalarni erkalatish (otam qani meni!), biror ishga asos slogan kishini nazarda tutish (Qodiriy romanchilik otasi), mehribon rahnamo (U yurtga ota bo'ldi) va el - yurt boshchisi ma'nolarida ham ishlatilib, xalq leksikasida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Xalqimiz lug'at boyligida ota so'zining turli variantlari mavjud bo'lib, bular: dada, ada, padar kabilar bo'lib, turli uslub doirasida faol qo'llaniladi. Dada va ota so'zlari ma'no jihatdan teng bo'lsa-da, uslubiy jihatdan qo'llanish doirasi nihoyatda farq qiladi. Shuningdek, dada aniq ma'no ifodalasa, ota umumlashgan mazmunda qo'llaniladi, ya'ni ota deganda bobo, Yoshi ulug' kishi nazarda tutilishi mumkin. Dada so'zida ham shunday holat kontekstida kuzatiladi: qaynotaga murojaat etishda kelin (yoki kuyov) shu so'zni ishtirok etuvchilarga bog'liq tarzda qo'llaydi.

Ma'lumki, har bir insonning jamiyatda bitta dadasi bo'lsa-da, ba'zan qaynotalarga nisbatan ham aynan dada so'zi ishlatiladi. Shunday paytlarda-jon qo'shimchasi orqali asosiy nazarda tutilgan shaxs anglashiladi. Ota so'zi dada ma'nosida ayrim sheva vakillari tilida saqlanib qolgan. Tarixiy, badiiy manbalardan bu so'zning onaga qarama- qarshi ma'noda ishlatilganining guvohi bo'lamiz. Dada so'zi esa bugungi kunda faol bo'lib, so'zlashuv uslubida keng qo'llaniladi. Dada va ota so'zlari yonma-yon ishlatilishi uzoq davrlarga borib taqaladi. Kelib chiqishi o'g'uzcha bo'lgan dada so'zining ota ma'nosida X-XI asrlarda ham mavjud bo'lishiga qaramay, "Boburnoma" asaridan ma'lumki, bu davrada biy tili va uslubida ota so'zi yetakchilik qilgan. Shuningdek "Boburnoma"da doda, xondoda so'zlari ham ifodalangan. Ota so'zi ma'nosi kengayishida ham dada so'zining qo'llanish doirasi ortishi sabab bo'lgan bo'lib, ota so'zi turli ko'chma, uslubiy ma'nolarda ham ishlatilmoqda. Manbalarda ko'rsatilishicha, uyg'ur adabiy tilida ham, ayniqsa, maqollarda ko'proq ota, jonli so'zlashuvda esa dada so'zi qo'llanadi. Tuman va qishloq shevalarida sal boshqacharoq holatni ko'ramiz, jumladan, Izbosgan tumanida ota// dada// aka// paralleligi uchratilsa, qo'rg'ontepa tumanida dada so'zining ota va onaning otalari (bobolar) ma'nosini ifodalashi ham kuzatiladi [2,89]. Ayrim sheva vakillari ota ma'nosida aka so'zini, bobo ma'nosida ota so'zini ishlatishadi (Xorazm). Toshkent shahri hududida esa doda so'zi bobo ma'nosini ifodalab, dada ma'nosida ada so'zi ishlatiladi. Badiiy uslubda, ayniqsa, she'riyatda ota so'zi o'rnida ato, oto shakllari ham uchrab bu qofiya talabi, aruz qoidalariga xos tarzda ishlatiladi. Stillistik maqsadda ham ota so'zi o'rnida dada, ada, oto yoki padari buzrukvor so'zlari qo'llanilib, so'zlovchining turli modal munosabatini ham ifodalaydi. Ota o'rnida qo'llanilgan dada so'zining shevaga xos deda variant ham uchrab, badiiy

asarlarda qahramonning qaysi hudud vakili ekanligini tasvirlash maqsadida qo'llaniladi. Samarqand viloyatining Bulung'ur, Jomboy, Payariq, Qo'shrabot, Nurabot, Kattaqo'rg'on, Ishtixon tumanlarida (qishloq aholisi shevasida ko'proq) ota so'zi oldidan katta so'zini qo'llash orqali bobo ma'nosi ifodalanadi: kattaota, kattata, kattaota shaklida. Akdemik Sh. Shoabdurahmonov Toshkent shevasi haqida fikr bildirib, dada so'zining bobo ma'nosini ifodalashini ham qayd etgan [3]. Voha xalqi nutqida ota so'zining ota shevaga xos shakli ham uchraydi.

Badiiy asarlarda, xususan, xalqdostonlarida ota so'zining xalqimiz madaniy- ma'naviy qiyofasi, tarixiy an'alariga muvofiq ishlatilishi kuzatiladi. Ota konseptining xalqimiz xalq og'zaki ijodidagi qo'llanilishi xalqimiz xos milliy- madaniy, kognitiv xususiyatlarni ham namoyon etadi. Zero o'zbek xalqida ota konsepti xulq- atvor, milliy mental munosabatlar zahirida shakllangan.

O'zbek xalq dostonlaridan biri-"Ravshan" dostonida ota konseptining pragmatik ifodalanishiga e'tibor qaratsak:

Otang keldi sening so'zing olmoqqa,

Ko'nglidagi sirni bayon qilmoqqa,

Shu sababli mehmon keldim uyingga:

Hasan man o'zingni quad qilmoqqa.

Bu she'r bandidan ayonki, Go'rog'li o'z niyatiga yetish maqsadida o'zining ota ekanligini eslatmoqda. Bu misrada ota so'zi har qanday ulug', keksa kishi ma'nosida ishlatilgan bo'lsa, keying misrada boshliq, rahnomo ma'nosida qo'llanilgan:

Yetti yoshda olib keldim o'zingni,

Qo'limda ko'p yedingosh-u tuzimni,

Otang keldi bolam, o'zingga sovchi,

Ravshanga ber bolam Gulnorday qizingni!

Oxirgi bandda esa ota so'zi dada so'zi o'rnida qo'llanilib, farzandli er kishi ma'nosini ifodalagan. Zero xalqimizda shunday naql bor: "Ota rozi- Xudo rozi".

Otangning farzandim, tilin olinglar.

Hasanman o'zingni quad qilayin

Ravshangaber Gulnordayqizingni

Yovmitning eliga to'ylar berayin.

Ushbu murojaat shaklidagi she'rga Avazning she'riy javobi keltirigan bo'lib, Avazxonning otasiga munosabati orqali farzandning qonunan, tabiatan bitta bo'ladigan otasiga emas, sovchi, boshliq, keksa kishi ma'nosidagi otaga fikri qaratilganining guvohi bo'lamiz.

Ota, javobingni berdim, jo'nagin!

Bundan keyin sovchi bo'lib kelmagin!

Har kimni tengiga qo'sh-da, vallamat,

Menga bunday tuzsiz so'zni demagin!

Ushbu she'riy matnda keltirilgan vallamat so'zi ota ma'nosini ifodalab, pragmatik mazmuni yuzaga chiqargan. Vallamat orqali ham ota, ham Go'rog'liga munosabat ifodalangan. Ushbu dostonida bosh qahramontilidan "ota", "otajon", "Jonim ota" leksik birliklarining ishlatilishi ham pragmatik maqsadni ko'rsatadi. Bu orqali Ravshanning mehri, alami, iltimosi bilan bir qatorda uning xarakteri, psixikasi ham ochiq ko'rsatiladi:

Jonim ota, aytolmayman uyalib,

Bolang ketar endi boshini olib

Jon ota, alamim ko'pdir so'rmagin

Bekravshan jo'nadi safarga tolib.

Javobber, otajon yorga boraman,

Yor deyman-u nomus orga boraman

Ota, sendanoq fотиha tilayman,

Shirvon elda Zulxumorga boraman.

Doston so'ngida ham ota konsepti o'zbek xalqiga xos g'ururi baland, mard, oriyatli farzandli er kishi ma'nosida ishlatiladi, shuningdek, barcha otalarga xos mehr- muhabbat kabi umumshaxsiy tuyg'u ko'rsatiladi:

Uyquda bog'ladi nozik qo'limni,

Sog'indim otajon, Chambilelimni,  
Tor zindonda "vo ota" deb yig'ladim  
Ko'rdingmi, otajon, mening holimni?

Ushbu misralarda Ravshanning otasiga sog'inchi, mehri ifoda etilishi bilan bir qatorda otasi Hasanxonning jasur, mard va mehribon ota ekanligi ham anglashiladi.

Subyektiv baho formalari erkalash mazmunidan tashqari ardoqlash, qadrlash ma'nolarini ham ifodalab, Ravshanning g'o'r va tajribasiz bo'lsa-da or- nomusli yigit ekanligini ko'rsatadi:

Yo'lingda intizor bo'ldim, otajon  
Baloga giriftor bo'ldim, otajon  
Dushmanga xor-zor bo'ldim, otajon  
Bir ko'rmoqqa xumor bo'ldim, otajon.

Shuningdek, ushbu dostonida ota so'zi o'rnida mehribonim leksemi ishlatilgan. Hasanxonning uzoq yo'lni qisqa fursatda bosib o'tib uni qutqargani kelgani unda yuksak otalik mehri bor ekanligini ko'rsatadi. Dostonida ota konsepti xalq milliy ruhida namoyon bo'ladi [4].

**Xulosa.** Badiiy asarlar xalqimizning chinakam xazinasini bo'lib, ota kabi so'zlarning turli tuman variantlarini xalqimizdan olib, pardoqlab xalqimizga taqdim etadi. Har qanday badiiy asar milliy konseptosferaga ega mental munosabatlar natijasidir. Zero konseptlarni tahlil qilish bu ma'lum bir xalq milliy o'ziga xosligini ochish demakdir. Ota

konsepti bizning xalqimiz tafakkurida biz yuqorida sanagan ma'nolarda assotsiatsiyalanadi. Bugungi kunda tilshunslar filologik tadqiqotlarni poetik asarlar doirasida olib borishi ham lingvistik, ham badiiy bilimlarning ortishiga sabab bo'lmoqda. Zero bu ikki fan ajralmas, hamkorlikdagi sohadir. Har qanday konseptni yuzaga chiqishi psixik, kognitiv jarayondir. Konsept orqali xalq madaniyati, xalq madaniyati orqali esa konsept tanglashiladi. Har qanday konsept tarixan tarkib topgan qarashlar, mental munosabatlar va mushtarak g'oyalar samarasidir. Ravshan dostoni tahlilidan anglashiladiki, ota konsepti rang- barang leksemalarda ifoda etilib, xalqimizga xos milliy madaniy, mental xususiyatlarni ifoda etadi. Otani ulug'lash, qadrlash va rozi qilish kabi tamoyillar konseptosferani to'ldirib turadi. Ushbu dostonida Hasanxonning kuchli, jasur, mard va or-nomusli kishi ekanligi ota konsepti orqali yorqin ochib berilgan. Demak, haqiqiy otaga xos bo'lgan xususiyatlar: mehribonlik, jasurlik va or-nomusli bo'lishlikdir. Ota konsepti umumbashariy mazmun ifodalasa-da, o'zbek xalqida bolalikdanoq shakllanadigan milliy xulq- atvor normalari bilan bog'langan tushunchadir.

O'zbek tilshunosligida konsept va konseptosfera bilan bog'liq qilinishi kerak bo'lgan tadqiqotlar hali talaygina. Bu kabi tadqiqotlar natijasida tilimiz xazinasini yanada jilolanadi va taniladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Кубрякова Е.С. и др. Краткий словарь когнитивных терминов. – М.: изд-во МГУ, 1996. – С. 97-99.
2. Mamatov A. O'zbek tili leksikologiyasidan materiallar. -T. 2009. - 65 b.
3. Adabiyot (7-sinf darslik). Toshkent, 126-152-bet.
4. Majitova S. The lexical subtleties of some letters of arabic alphabet in gazelles of Djami. International Journal of Science and Research (IJSR), INDIA, Volum 7. 2018/5.
5. Majitova S.J., Aminova D.Sh. The linguistic significance of the father concept. Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595).
6. <https://tadqiqot.uz/index.php/art/article/view/9094>